

ОБРАЗОВАНИЕ,

**НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ
В МИРЕ**

международный научный электронный журнал

*Выпуск журнала № 44
Часть-11_ Май -2024*

OPEN  ACCESS



ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ

международный научный электронный журнал

Май - 2024 год

ЧАСТЬ - 11



О‘QITISH TAMOYILLARI VA MULTIMEDIA

Karlygash Ashirxanova

*X. Do ‘smuxamedov nomidagi
Atyrau universiteti dotsenti, PhD*

Sanobar Kuldasheva

*Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti
universiteti katta o‘qituvchisi*

Annotatsiya. Maqolada umumiy o‘rta ta’limning ona tili darslarida multimedia vositalaridan foydalanishga oid yondashuv va tamoyillar tahlil qilib berilgan. Multimedia vositalaridan foydalanganda umumpedagogik hamda ona tiliga xos bo‘lgan tamoyillar, yondashuvlarning mazmun-mohiyati ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: multimediali ta’lim texnologiyasi, video, audio, tamoyillar, yondashuv, AKT.

Ona tilini o‘qitish metodikasiga doir tadqiqotlarda ta’lim mazmunini belgilash, til hodisalarini o‘rganishga doir tamoyillar, yondashuvlar, qonuniyatlar atroflicha talqin qilinadi. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunda ham o‘qitishda amal qilinishi lozim bo‘lgan tamoyillar ko‘rsatiladi.

Ona tilini o‘qitishda ta’lim, tarbiya va rivojlanishning uyg‘unligi tamoyili multimedia vositalariga ehtiyoj borligini taqozo etadi. Yosh avlodni har tomonlama kamolotga yetkazish uchun vatanga sadoqat, o‘zaro hurmat, milliy g‘oya, tabiatga muhabbat, adolatlilik unsurlarini singdirish ona tili darslarida multimedia vositalari orqali yengil amalga oshadi. Tarbiyaviy ahamiyatga molik video, audio va animatsiyalardan mavzu bilan bog‘liqlikni saqlagan holda unumli foydalanish dolzarblik kasb etadi. Ona tili darsligida berilgan hamda qo‘shimcha sharqona tarbiyaga xos bo‘lgan ma’rifiy matnlar asosida multimedia materiallarini topish va qo‘llash nazarda tutiladi. Metodist olimlar A.G‘ulomov va M.Qodirov “Ona tili o‘qitish metodikasi” darsligida “Yoshlarda ijodiy tafakkur, ijodiy izlanish, mavjud imkoniyatlardan eng maqbulini tanlash, tilimizning boy imkoniyatlaridan nutq sharoitiga ko‘ra to‘g‘ri, samarali foydalanish malaka va ko‘nikmalarini singdirish, ularni milliy qadriyatlarimiz, udum va an‘analarimiz ruhida tarbiyalashda maktab ona tili kursining tutgan o‘rni va imkoniyatlari benihoya kattadir”[1] deb qayd etgan. Bu o‘rinda nazarda tutilgan “milliy qadriyatlarimiz, udum va an‘analarimiz ruhida tarbiyalashda” shu ruhga mos audio, video va animatsiyalarni tanlash, yaratish va foydalanish foydadan xoli emas. Metodist olim A.Aliev “...tanlangan asar o‘quvchilarning yoshi, qobiliyati va bilim darajasiga mos bo‘lishi kerak”[2]ligini

uqtiradi. Garchi A. Aliev badiiy asarning matni va matn tanlashdagi talablar xususida fikr yuritgan bo'lsa-da, biz audiomatnlarda ham bunday xususiyatlarni inobatga olishimiz darkor. Audiolashtirish uchun matnlar o'qituvchi tomonidan saralanib tanlanadi yoki yoziladi. Bu o'rinda fiziopsixologik talablar nazardan chetda qolmasligi kerak. O'quvchi uchun mavhum bo'lgan tushunchalar, tilga oid hodisalar, ba'zi so'zlarning etimologiyasi, izohini ilmiylik va tushunarlik tamoyili asosida multimedia vositalari orqali oson va jozibali tushuntirishga erishiladi. "Ta'limning ilmiylik tamoyili o'quv materialini hozirgi zamon o'zbek tilshunosligi fani yutuqlari asosida bayon qilishni taqozo etsa, ta'limning tushunarli bo'lish tamoyili o'quv materiallarini o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlariga, ularning umumiy taraqqiyoti hamda bilish imkoniyatlariga moslab bayon qilishni talab etadi. Ta'lim jarayoni mantig'i bu tamoyillarni o'zaro aloqadorlikda qarashni zaruriyat qilib qo'yadi"[3]. Masalan, 6-sinfda sifat va sifatdoshni farqlashda o'quvchilar ko'p ikkilanishlarga duch kelishadi. Darslikda bu farq "katta (sifat) daryo, oqar (sifatdosh) daryo"[4] misolida tushuntirib o'tilgan. Ammo o'quvchi katta va oqar belgilarining mohiyatini tushunib yetmasa, har ikkisini otning bir xil belgisi sifatida qabul qilsa, ancha vaqt ikkilanishda yurishi mumkin. Sifat ham, sifatdosh ham belgi bildirishi, lekin sifat (katta) turg'un belgi ekanligi, sifatdosh (oqar) harakatdagi belgi ekanligi video yoki animatsiya vositalarida o'quvchining ko'z oldida namoyish etilsa, uning ongida muqim o'rnashib qolishiga erishiladi. Daryoning oqayotganligini bildiruvchi harakatning qo'shilishi hodisaga oydinlik kiritadi. Ona tilidagi tushuncha va atamalarning ma'nosini sharhlashda, ayniqsa, mashq va topshiriqlardagi lug'atlar bilan ishlashda, izohini topish va tahlil qilishda chiziqli bo'lmagan multimedia loyihalari bilan ishlash ahamiyatli. O'quvchi mustaqil ravishda elektron kitoblar va elektron lug'atlar bilan ulanadi, so'zlarning izohi, hatto etimologiyasi bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Ona tilini o'qitishda sistemaviylik va izchillik tamoyiliga multimedia vositalaridan foydalanayotganda qat'iy amal qilish muhim. O'rganilgan va o'rganilayotgan bilimlar orasidagi aloqani ta'minlash, osondan qiyinga, oddiydan murakkabga qarab harakatlanish multimedia texnologiyalaridan foydalanilayotganda nazardan chetda qolmasligi kerak. Masalan, 9-sinfda "Qo'shma gaplar" mavzusi o'tilayotganda matn, audio va animatsiyadan foydalanib multimedia texnologiyasi loyihasini tuzdik va uni pero animatsiyasidan foydalanimiz uchun "Pero" texnologiyasi deb nomladik: ekranda pero animatsiyasi paydo bo'ladi va u sodda gap hamda qo'shma gapning farqini tushuntirib berishini aytadi. Peroda harakat, rang va ovoz effektlari mavjud bo'ladi. Uning harakatlari birin-ketin amalga oshiriladi:

1. Birinchi sodda gapni ekranga yozadi.
2. Orada bo'sh joy qoldirib ikkinchi sodda gapni yozadi.
3. Bo'sh o'rinda bog'lovchi vositani joylashtiradi.

4. Gapping kesimlarini aniqlab tagiga chizadi.

“Pero” mavzuni tushuntirish jarayonida qo‘shma gaplar tarkibida birdan ortiq kesim mavjud bo‘lishini, sodda gaplar ohang, bog‘lovchilar yoki bog‘lovchi vazifasidagi vositalar yordamida bog‘lanib kelishini aytadi. Oldin sodda gaplarni keltirish, bog‘lovchi vositalar bilan ularni bog‘lash, qo‘shma gaplar tarkibida bir nechta kesim bo‘lishini ko‘rsatish bilan sodda gapping qo‘shma gapdan farqini tushuntirish oldingi mavzular bilan uzviylikni ta‘minlaydi. Jarayon izchillik va sistemalilik asosida amalga oshadi.

Dars jarayonida multimedia vositalaridan unumli foydalanish mustaqillik va faollik tamoyilini ta‘minlaydi. O‘quvchilarning bilish faolligi darajasi o‘rganishning turli usullari va shakllariga bog‘liq. Bu ona tilining barcha ichki imkoniyatlarini egallash uchun o‘quvchini qiziqitira olish, har xil metod va texnologiyalarni o‘ylab topish, o‘z kasbiga sodiqlik va kashfiyotchilik yondashuvi bilan o‘lchanadi. Sh.Yusupova ta‘kidlaganidek, “Mustaqil va erkin fikrlash uchun esa o‘qituvchi mashg‘ulotlarni ta‘sirchan, qiziqarli tarzda tashkil etishi katta mahorat (texnologiya)ni talab etadi”[5]. O‘quvchining mustaqil fikr yuritishi, tahlil qila olishi, o‘z xulosasini keltirib chiqarishi uchun multimedia texnologiyalari yordamida sharoit yaratib beriladi. Darsning mustahkamlash, takrorlash, uyga vazifa berish va baholash bosqichlarida turli lingvopsixologik o‘yinlar tashkil etish mumkin. Ammo zinhor darsning asosiy maqsadini ko‘zdan qochirmaslik lozim. “Darsning maqsadi unga umumiy yo‘nalish baxsh etsa, har bir bosqichdan, ish turi va mashqdan ko‘zlanadigan maqsad umumiy maqsadga bo‘ysundirilgan holda maydaroq qilib olinadi”[6]. Darsning maqsadi uchun xizmat qiladigan lokal-modulli multimedia o‘yinlari o‘quvchining faolligi va mustaqil fikr yuritish omillarini ta‘minlaydi. E.G‘ozievning fikricha, “o‘zining jismoniy va aqliy qobiliyatlari, xatti-harakatlari va ularning motivlari, borliqqa, o‘z-o‘ziga bo‘lgan munosabatlarini anglash ham fikr yuritish faoliyati orqali vujudga keladi”[7]. Multimedia vositalarida beriladigan trinajyor topshiriqlar, videokeys, sharadalar yechishda o‘quvchining mustaqil fikr yuritishi va faolligi ta‘minlanadi, yechilmay qolgan jarayonlarda izlanuvchanlik yondashuvi vujudga keladi.

O‘rganiladigan bilimlar ko‘rsatmalilik tamoyili asosida multimedia orqali o‘quvchiga namoyish etiladi. Ya.A.Komenskiy ko‘rsatmalilik tamoyilini didaktikaning “oltin qoidasi” deb baholagan edi. Metodist olim T.M.Voitelyeva “o‘rganish samaradorligi turli sezgi organlarining o‘quv materialini idrok etish va o‘zlashtirishdagi ishtiroki darajasiga bog‘liq”[8]ligini ta‘kidlagan. Audio, video, animatsiya, turli sxema va diagrammalar bilan aloqadorlik ta‘minlanganda o‘quvchi ko‘radi, eshitadi, ko‘rib eshitadi. Natijada unda voqea-hodisani his qilish, undan zavq, rohat, quvonch, muhabbat hislarini tuyish tuyg‘usi paydo bo‘ladi. Barcha sezgi a‘zolarining ishtirokini ta‘minlash o‘rganishning natijadorligini oshiradi.

Audiomatndan eshitgan soʻz va gaplarini tahlil qiladi, izohlaydi, u asosida yozma ishlar yozadi; videoroliklarni koʻradi, xulosa chiqaradi, u asosida berilgan topshiriqlarni bajaradi; animatsiyalar yordamida yaratilgan ibratli yoki tanqidiy loyihalar orqali mustaqil fikrlaydi, baho beradi, xulosa chiqaradi. Xullas, jarayonga faoliyatli yondashadi.

Onglilik tamoyilida ekranda yoki elektron doskada namoyish etilgan lavhani koʻradi, eshitadi, miyaning ham koʻrish faoliyati bilan bogʻliq boʻlgan, ham eshitish faoliyati bilan bogʻliq boʻlgan qismlari ishga tushadi. Buning natijasida til hodisasining mazmunini tez anglash, idrok etish jarayonlari sodir boʻladi. Tilshunos olim N.Mahmudovning taʼkidlashicha, “Bola tafakkur imkoniyati bilan yorugʻ dunyoga keladi, lekin bu imkoniyat parvarish qilinmasa, unga shaklu shamoyil, yoʻnalish berilmasa, bola ulgʻayganda ham u imkoniyat sifatida yoki bir qolipdagi oʻylar tizimi sifatida qolaveradi”[9]. Oʻquvchining tafakkurini oʻstirish uchun multimedial vositalaridan foydalanilsa, katta imkoniyat qoʻlga kiritiladi. Ona tilini oʻzlashtirishga moʻljallangan oʻyin dasturlari yaratilib, amalga tatbiq etilsa, oʻquvchi ixtiyoriy ravishda koʻp vaqtini ona tilini oʻrganishga sarflaydi. Multimedia majmualaridagi bola tafakkurini oʻstiruvchi topshiriqlar, mantiqiy savollar banklari, oʻrgatuvchi mashqlar, videokeys, rebus va boshqotirmalar bola tafakkurini oʻstiradi.

Saviyaga moslik tamoyiliga koʻra multimedia vositalaridan foydalanganda oʻquvchining yoshi, dunyoqarashi, bilim saviyasi inobatga olinadi. 10- va 11-sinf oʻquvchilarining oʻspirin yoshida ekanliklari uchun shu davrga mos boʻlgan va yangi gʻoya, startaplar yaratishga chorlaydigan video, audio, animatsiyalardan foydalanish, koʻproq nutq mashqlarini bajartirish ahamiyatli. 5- va 6-sinf oʻquvchilarini bolalikning oʻyinqaroqligi tark etmagan boʻladi. Ularda til hodisalarini oʻrgatishda animatsiya harakatlaridan koʻproq foydalanilsa, maqsadga muvofiq.

Ona tili taʼlimining vazifalaridan biri oʻquvchilarda toʻrt koʻnikma (oʻqib tushunish, tinglab tushunish, gapirish va yozish)ni rivojlantirishdir. Bugungi kun ona tili darslarining oldida shaxsning oʻz tili imkoniyatlaridan unumli va oʻrinli foydalanadigan, voqelikka shaxsiy munosabatini bildira oladigan shaxsni tarbiyalash vazifasi turadi. Amaliy yoʻnalganlik tamoyilida oʻquvchi olgan nazariy bilimlarini hayotga tatbiq etishi koʻzga tashlanadi. Multimedia vositalari orqali olingan lingvistik bilimlar amalda bajartiriladi. “Oʻz tilining keng imkoniyatlaridan ogʻzaki va yozma nutqda bimalol foydalana oladigan shaxsgina xalq yaratgan madaniy-tarixiy boyliklardan xabardor boʻladi va u boshqa fanlar asosini chuqur oʻzlashtirishga dadil qadam tashlaydi”[10]. Multimediali mashgʻulotlarda lingvistik bilimlar oʻquvchi yashab turgan muhiti bilan uygʻunlashadi. Amalda qoʻllash malakalari shakllanadi.

Ona tili oʻqituvchisi ish tajribasidan kelib chiqib yoʻl qoʻygan kamchiliklarini bartaraf etishi, multimedia mahsulotlarining shakl va mazmuniga oʻzgartirish kiritishi, qayta loyihalashi, modellarini oʻzgartirishi, hajm, ovoz va ranglariga oʻzgartirish

kiritishiga imkon va sharoit borligi o'qituvchilar ish tajribasidagi kamchiliklarni hisobga olish tamoyilida amalga oshadi.

Voqelikka baho berish tamoyiliga multimedia vositalaridan foydalanib videolavhalar namoyish etiladi. Videolavhadagi g'oya asosida esse yozish topshiriqlarida o'quvchi voqelikka real baho berish tamoyiliga asoslanadi. Esse yozish uchun dolzarb muammolar mavzu sifatida qamrab olinadi. O'quvchining muammoga nisbatan ijobiy va salbiy qarashlari, asos va dalillari hamda xulosasining bayon etishi uchun videolavhadan ilhom olishiga imkoniyat bor. Audiobayonlardan foydalanib bayon yozishda ham o'quvchi bayonda ifoda etilgan voqelikka baho beradi, o'z nuqtayi nazarini ilgari suradi, fikrlarini bayon etadi. Adabiy talaffuz bilan tiniq va ravon o'qilgan audiobayonlarning barcha o'quvchilarga bir xilda yetib borishi ta'minlanadi. O'quvchi faqat bayon yozish bilan cheklanmaydi. Audiodagi ohang va nutqning ravonligi unga ijobiy ta'sir o'tkazadi. Og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Umumdidaktik tamoyillar bilan bir qatorda ona tilining o'ziga xos tamoyillaridan "til – me'yor – nutq mutanosibligi" tamoyilida o'quvchi tomonidan tayyorlangan audiomatnlardan foydalaniladi. O'z nutqini yozib oladi, eshitadi. Qayta-qayta so'zlarni talaffuz qilib ko'radi. Videomateriallar asosidagi topshiriqlarni bajarish asnosida og'zaki nutq so'zlaydi. Tengdoshlari orasida nutq so'zlash mashqlarida notiqlik mahorati rivojlanadi. Atrofdagi odamlarning e'tiborini o'ziga qarata olish, fikrlarini dalillash, o'ziga ishonch, shaxsiy qarashlariga ega bo'lish kabi xususiyatlar takomillasha boradi. O'zbek tilini o'qitishda mahalliy sheva sharoiti va ta'sirini nazarda tutish tamoyili, o'zbek tilini o'qitish orqali o'quvchilar nutq malakalarini mustahkamlash va til sezgirligini oshirish tamoyilida ham yuqorida qayd etilgan faoliyat turlaridan foydalaniladi. Darslikda berilgan matnlarning ovozli variantlaridan foydalanish o'qituvchilar talaffuzida ko'p uchraydigan mahalliy sheva unsurlarini yashiradi. O'quvchilar uchun tushunarlik tamoyili ta'minlanadi.

Multimedia majmualari mavzular, bo'limlar doirasida yoki sinflar kesimida tuziladi. Ona tilini o'qitishda mavzulararo, bo'limlararo va fanlararo bog'lanishga qat'iy amal qilish tamoyili vujudga keladi. Fizika, falakiyot, tibbiyot va ijtimoiy sohaga oid mavzularga xos videolavhalar asosida tayyorlangan multimediali mashq va topshiriqlarni AKT qurilmalari orqali ko'rish va bajarish fanlararo integratsiyani hosil qiladi.

Multimediali ta'limda dars jarayonlarining o'zidayoq ona tiliga xos atamalar yoki til hodisalariga aniqlik kiritish maqsadida elektron lug'atlar, elektron ma'ruzalar bilan bog'lanish, amalda foydalanish imkoniyati o'quvchilarni til hodisalarini ajratishga o'rgatish tamoyilini keltirib chiqaradi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlaymizki, ona tilini multimedia vositalari orqali o'qitishdan ko'zlangan maqsad o'quvchilarda bilim, ko'nikma va malakalarning zaruriy hajmini berish, ularda tahlil qilish va mustaqil fikrlash qobiliyatlarini

rivojlantirishda yengillik va mukammallikka erishishdir. Bunday ishlanmalarni ishlab chiqishda uzviylik va uzluksizlik, shakl va mazmun birligi tamoyillariga, kommunikativlik, faoliyat yondashuvlariga amal qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. А.Ғуломов, М.Қодиров Она тили ўқитиш методикаси. – Тошкент: Университет, 2001. – 221б.
2. Алиев А. Мактабда ёзувчи услубини ўрганиш. Ўқитувчилар учун қўлланма. – Тошкент: Ўқитувчи, 1977. – 88б.
3. Юсупова Т., Мавлонова К., Наралиева Ш. Ўзбек тилини ўқитиш методикаси. Ўқув қўлланма. – Алматы: ЭСПИ, 2021. – (1-қисм, 214 б. 45-бет)
4. Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A., Nabiyeva D. Она тили. Umumiy o'rtata'lim maktablarining 6-sinfı uchun darslik. – Toshkent: "Tasvir" nashriyot uyi, 2019. – 57-б.
5. Юсупова Ш.Ж. Ҳозирги ўзбек адабий тили дарсларида ўқувчилар тафаккурини ўстиришнинг илмий-методик асослари (академик лицейлар мисолида): Пед.фан.док. ...дисс. – Тошкент, 2005. – 279 б. (64-бет)
6. Мавлонова К.М. Она тили фанини адабиёт фани билан бадиий матн орқали интеграциялаб ўқитиш методикасини такомиллаштириш. Пед.фан.б. фал. док. ... дис. – Тошкент, 2019. – 26-б.
7. Ғозиев Э. Умумий психология. Психология мутахассислиги учун дарслик. Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети "Университет" нашриёти, 2002. 5-б.
8. Воителева Т.М. Теория и методика обучения русскому языку: учеб.пособие для вузов. – М.: Дрофа, 2006. – С.16.
9. Махмудов Н. Она тили ва ижодий тафаккур тамойили. Таълим жараёнида ижодий тафаккурни ривожлантириш масалалари. Ўзбек тили доимий анжуманининг VI йиғини материаллари. – Тошкент. 2001. (3-бет).

TABLE OF CONTENTS / ОГЛАВЛЕНИЯ / MUNDARIJA

№	The subject of the article / Тема статьи / Maqola mavzusi	Page / Страница / Sahifa
1	ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA KORRUPSIYAVIY JINOYATLARNING OLDINI OLISH	3
2	FIZIKA DARSLIGIDA METODLAR	6
3	TALABA – BAKALAVRLARNING O‘QUV JARAYONIDAGI MOTIVATSIYANING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	9
4	AXBOROT ALMASHINUVI	11
5	IJTIMOY PEDAGOGIKA TARIXI	14
6	NAZARIYA FIZIKA BOSHLANG‘ICH KURSI	17
7	FIZIKA FANI BO‘LIMLARIGA QISQACHA TASNIF	19
8	FIZIKA FANI TARIXI	22
9	FIZIKA O‘QITISH USULI (2-USUL)	24
10	FIZIKA O‘QITISH METODIKASI VA USLUBLARNING FOYDALI ISH KOEFITSIYENTI	28
11	FIZIKA O‘QITISH USULI (2-USUL)	30
12	YAQIN SHARQDA FIZIKA FANI RIVOJLANISHI	33
13	YEVROPA FIZIKASIDA RENESANS	35
14	FIZIKA FANINI O‘QITISHDA AXBOROT-KOMMUNIKATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH	37
15	KLASSIK MEKANIKA	39
16	INERSIYA TENZORI	43
17	“ENERGIYANING SAQLANISH QONUNI” MAVZUSINI UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA O‘QITISH METODIKASI	45
18	KIBER HUQUQIY MASALALARNI VA ULARNI HAL QILISH BO‘YICHA XORIJIY TAJRIBA	48
19	O‘QITISH TAMOYILLARI VA MULTIMEDIA	54
20	ПРОБЛЕМЫ ФОРМИРОВАНИЯ ПРАВОВОГО ПОВЕДЕНИЯ ГРАЖДАН: ВОПРОСЫ ТЕОРИИ И ПРАКТИКИ	60
21	ПРОБЛЕМЫ ФОРМИРОВАНИЯ ПРАВОВОГО ПОВЕДЕНИЯ ГРАЖДАН: ВОПРОСЫ ТЕОРИИ И ПРАКТИКИ	65
22	THE WEIGHT OF A STRONG US DOLLARS IN BANKING, TRADING INDUSTRIES ON THE WORLD	69
23	“MAKTABLARDA BIOLOGIYA FANINI O‘QITISHNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH”	72
24	PROFILAKTIKA INSPEKTORINING BOLALAR MASALALARI BO‘YICHA TUMAN (SHAHAR) MILLIY KOMISSIYALAR BILAN O‘ZARO HAMKORLIGINI TAKOMILLASHTIRISH	76
25	PROFILAKTIKA INSPEKTORINING MA’MURIY HUQUQBUZARLIKLARNI KO’RIB CHIQISH FAOLIYATI	81
26	PROFILAKTIKA INSPEKTORINING MA’MURIY HUQUQBUZARLIKLARNI KO’RIB CHIQISH FAOLIYATI	86

27	HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKA INSPEKTORI FAOLIYATIREYTING BAHOLASH FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH	91
28	HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASINI BEVOSITA AMALGA OSHIRUVCHI ORGANLAR VA MUASSASALAR TIZIMI	95
29	TRANSPORT VOSITALARINI OLIB QOCHISH JINOYATNI FOSH ETISH VA OLDINI OLISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	98
30	MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKISTONDA KO'P PARTIYAVILIK SIYOSATI	102

Напоминание! — Образование наука и инновационные идеи в мире || Авторы несут персональную ответственность за правильность цифр и данных в статьях и планах занятий, включенных в мировой научно-методический журнал, и за правильность приведенных цитат.


**Главный редактор:
Семёнов Владимир Львович**

**Помощник редактора:
Абдурахманов Бобуржон**

**Подготовитель к публикации:
Халиков Тохирджон Шавкатжонович**

— Образование наука и инновационные идеи в мире всемирный научно-методический журнал, 2024-г.





OPEN  ACCESS

